

## 96. Parallel to'g'ri chiziqlar

Yondosh mavzu:  
musiqa.


To'g'ri chiziqlar,  
kesmalar, nurlar.



1. Ushbu musiqa asboblari-  
qarang. Ularda torlar bir-biriga  
nisbatan qanday joylashgan?




Agar ikki to'g'ri chiziq har qancha davom ettirilsa  
ham kesishmasa, ular parallel to'g'ri chiziqlar  
deyiladi.



$a$  va  $b$  – parallel to'g'ri chiziqlar



2. Rasmdan bir xil rangdagi parallel to'g'ri chiziqlar juftligini toping.




## 96. Parallel to'g'ri chiziqlar




3. Gorizontal to'g'ri chiziq yasang. Uning tagidan ikki katak tashlab, yana bitta gorizontal to'g'ri chiziq yasang. Bu to'g'ri chiziqlar orasidagi masofa 2 katakdan ko'p bo'ladimi? Xulosani davom ettiring: parallel to'g'ri chiziqlar orasidagi masofa ...



4. Daftaringizda nota chiziqlari – beshta parallel gorizontal chiziq chizing. Pastdan birinchi va uchinchi chiziqda joylashadigan notalarni yozing. Bu qaysi notalar?



5. To'g'ri chiziq o'tkazing. Bu chiziqda yotmaydigan A nuqtani belgilang. Qizil qalam bilan A nuqtadan o'tadigan va birinchi to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan to'g'ri chiziq chizing.



6. Uzunligi 12 cm bo'lgan gorizontal  $MC$  kesma yasang.  $M$  nuqtadan o'ng tomonga 6 cm masofada  $S$  nuqta qo'ying.  $C$  nuqtadan chap tomonga 3 cm o'lchab,  $I$  nuqta qo'ying.  $M$  nuqtadan o'ng tomonga 30 mm masofada  $U$  nuqta qo'ying. Kesmada qaysi so'z hosil bo'ldi?



7. Eng kichik o'lchov birligiga o'tkazib, hisoblang.  
 $8\text{ m } 23\text{ cm} + 5\text{ m } 86\text{ cm} - 245\text{ cm}$   
 $(12\text{ km} + 15\text{ 000 m} - 4\text{ km}) : 2$   
 $(700\text{ cm} - 1\text{ m } 2\text{ dm } 9\text{ cm} + 6\text{ m } 29\text{ cm}) : 3$



8. Bu yerda qaysi son ortiqcha: 15, 37, 18, 21, 3, 96, 48, 60?  
Javoblar bir nechta bo'lishi mumkin.

## 96. Parallel to'g'ri chiziqlar



9. Musiqiy tanlovda faqat trio va kvartetlar ishtirok etadi (trio – uch kishilik, kvartet – to'rt kishilik ijrochilar guruhi). Tanlovda qatnashishga jami 7 ta kvartet ariza bergan. Agar tanlovda jami 76 ishtirokchi qatnashgan bo'lsa, unda nechta trio qatnashgan?

Jadvalni to'ldiring.

|            | Bitta guruhda | Guruhlar soni | Jami qatnashchilar |
|------------|---------------|---------------|--------------------|
| Triolar    |               |               |                    |
| Kvartetlar |               |               |                    |



10. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$$x \cdot 3 = 3\,470 + 1\,780$$

$$y : 6 = 278 + 424$$



11. Qonuniyatlarni aniqlab, qatorlarni davom ettiring.

18, 24, 20, 26, 22, 28, ...

45, 34, 44, 33, 43, 32, ....

4, 5, 9, 14, 23, 37, 60, ...

1, 4, 9, 16, 25, 36, 49, ...



12. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Yana bitta torli musiqa cholg'u asbobining nomini toping.

$$806\,504 - (369\,022 - 167\,338) + 2 \cdot (3\,228 + 557)$$

**A** 135 129

**N** 612 390

**M** 132 975

**N** 7 570

**Q** 201 684

**U** 604 820

**Z** 61 507

**O** 3 785



13. 6 ta avtobusda 35 nafardan uchinchi sinf o'quvchilari va 5 ta avtobusda 42 nafardan to'rtinchi sinf o'quvchilari konservatoriyaga ketishyapti. Konservatoriyaga jami necha nafar o'quvchi ketyapti?